

“JASUR” JAMOASI VILOYAT BOSQICHIDA



“JASUR” JAMOASI VILOYAT BOSQICHIDA

Farg'ona shahrida joylashgan Farg'ona dala poligonida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Xalq ta'limi vazirligi hamda "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashining 2022-yil 22-fevraldagi "Yoshlar o'rtasida mudofaa vazirining kubogi uchun "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" qo'shma qarorlarlari asosida viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari o'rtasida "Vatanparvar" harbiy-sport musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

1-sonli UO'T maktabi ChQBT yetakchisi, "Jasur" jamaosi murabbiyi Sanjarbek O'runovning ma'lumotiga ko'ra, harbiy-sport musobaqasining yakuniy natijasiga ko'ra, 1-o'rinni Beshariq tumani jamaosi, 2-o'rinni So'x tumani jamaosi va 3-o'rinni Quvasoy shahar jamaosi egalladi.

Tadbir so'ngida g'oliblar tashkilotchilar va hamkor tashkilotlar tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Eslatib o'tamiz, So'x tumani jamaosining mazkur tanlovlardagi ishtiroki an'ana tusini olgan. Hatto bizning jamoamiz Respublika miqyosida ham faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-18 16:56:05